

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna	109
<i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich	
<i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
<i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
<i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli	
<i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi	
<i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna	
<i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna	
<i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna	
<i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich	
<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
<i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich	
<i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi	
<i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

O'ZBEKISTON HUDUDIDA AHOLINI RO'YXATGA OLISH TADBIRIGA TAYYORGARLIK

Matkarimova Intizor Atabaevna

“Ma'mun universiteti” Nodavlat ta'lim muassasasi,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası,
PhD., dotsent. Xiva, O'zbekiston
intizor-matkarimova@mail.ru

Annatsiya. Mazkur maqolada, O'zbekistonda 1897-1989-yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, aholini ro'yhatga olish tarixi, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining davlat dasturlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan va tahlil etilgan. Xulosalarda, xorijiy davlatlar tajribasini O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishda qo'llash bo'yicha takliflar berilgan

Kalit so'zlar: Aholini ro'yxatga olish, qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish, aholini ro'yxatga olish dasturi, uy xo'jaliklari, shaxs, yoshi, jinsiy tarkibi, fuqaroligi, milliy tarkibi, mahalla yettiligi, census.stat.uz

ПОДГОТОВКА К ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Маткаримова Интизор Атабаевна

PhD., доцент кафедры “Бухгалтерский учет”
НОУ “Университет Мамуна” Хива, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены и проанализированы аналитические данные переписи населения, проведенной в Узбекистане с 1897 по 1989 год, история переписи населения, значение проведения переписи населения и сельского хозяйства в разработке государственных программ. В выводах представлен опыт зарубежных стран по проведению переписи населения в Республике Узбекистан, даны предложения по применению

Ключевые слова: Перепись населения, сельскохозяйственная перепись, программа переписи населения, домашняя хозяйства, человек, возраст, гендерный состав, гражданство, национальный состав, махаллинской семерки, census.stat.uz

PREPARATION FOR THE POPULATION CENSUS IN UZBEKISTAN

Matkarimova Intizor Atabaevna

PhD., Docent at the department “Accounting”,
Non-state educational institution “Mamun University”
Khiva, Uzbekistan

Annotation. *This article examines and analyzes the analytical data of the population census conducted in Uzbekistan from 1897 to 1989, the history of the population census, the importance of conducting a population census and agriculture in the development of government programs. The conclusions present the experience of foreign countries in conducting a population census in the Republic of Uzbekistan, and provide suggestions for application*

Keywords: *Population census, agricultural census, population census program, households, person, age, gender composition, citizenship, national composition, the mahalla seven, census.stat.uz*

Kirish.

Tasavvur qiling, qo'lingizda O'zbekiston xaritasi va unga qarab hududlarga doir birlamchi ma'lumotlarni aytish mumkin. Masalan, Qoraqalpog'istonda qancha aholi yashaydi, Xorazmda bandlik masalasi qay ahvolda, Surxondaryoda nechta ta'lim muassasasi bor, Farg'ona vodiysida aholi zichligi qanday va shunga o'xshash boshqa muhim ma'lumotlar. Biroq bunday yuzaki va taxminiy ko'rsatkichlar bilan bugungi jadal rivojlanish va islohotlar davrida uzoqni ko'zlab nimanidir reja qilish qiyin, albatta.

Aksincha, qo'limizda har bir hududga doir aniq faktlar bo'lsa, rejalarimiz ham, amallarimiz ham manzilli va puxta bo'ladi. Aynan shuning uchun bizga butun respublikani qamrab oladigan ishonchli ma'lumotlar kerak va ular tadrijiy ravishda yangilanib borilishi shart. Bunday aniq va yaxlit ma'lumotlar esa aholini ro'yxatga olish asosida olinadi. Shunga qarab o'tmish va bugun haqida fikr-mulohaza yuritish hamda kelajakni farazlash mumkin. Shuningdek, bu aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumot darajasi, oilaviy holati, bandligi va boshqa tavsiflari haqida ma'lumot olishning yagona manbai hamdir.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 1 iyun kuni milliy statistika sohasini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi farmonida 2022 yilda aholini ro'yxatga olish o'tkazilishi belgilangan edi. 2020 yil 16 martda "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonunda "Aholini ro'yxatga olish — O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o'tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni" [1] deb ta'rif berilgan.

Davlatimiz rahbari aholini ro'yxatga olish statistikasi shakllantirishda asosiy manba ekani, bunga hozirdan puxta tayyorgarlik ko'rish kerakligini ta'kidlagan edilar. Statistika qo'mitasida maxsus bo'linma tashkil etib, xorijlik ekspertlarni jalb qilish, qo'mita huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish instituti

faoliyatini takomillashtirib, aholini ro'yxatga olishda qatnashadigan barcha mutaxassislarni o'qitish yuzasidan topshiriqlar berilgan edi.[7] Statistika agentligi 2024 yil 23 oktyabr kuni "O'zbekiston Respublikasida 2026 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida"gi prezident farmoni loyihasini jamoatchilik muhokamasiga qo'ydi. Loyiha bilan, aholini ro'yxatga olishni 2026 yilning 15 iyulidan 21 avgustigacha o'tkazish taklif etilgandi. Ushbu dolzarb masalalarni hal etish va xalqaro talablardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrda imzolangan PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmon bilan tadbirning o'tkazilishi rasman tasdiqlandi. Bu hujjat xalqaro standartlarga asoslangan bo'lib, Yevropa statistika konferensiyasining 2020-yilgi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.[2] Shuningdek kuni kecha 2025 yil 7 oktyar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish chora- tadbirlari to'g'risida"gi № 629-sonli qarori qabul qilindi. [3]

O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini birgalikda ro'yxatga olish tadbiri mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu tadbir mustaqillik davrida birinchi marta o'tkaziladigan keng qamrovli ro'yxat bo'lib, oxirgisi 1989-yilda SSSR davrida amalga oshirilgan edi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston aholisi taxminan 38 million kishini tashkil etadi, ammo aniq statistik ma'lumotlarning yo'qligi byudjet rejalashtirish, ijtimoiy dasturlar va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda jiddiy to'siqlarga olib kelmoqda.

Tadbirning asosiy maqsadi – aholining demografik tarkibi, migratsiya, oilaviy holat, ta'lim, bandlik va uy-joy sharoitlari haqida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda qishloq xo'jaligi sohasida yer resurslaridan foydalanish, chorva mollari soni va mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlash. Bu birinchi marta aholi va qishloq xo'jaligini bir vaqtda o'tkaziladigan ro'yxat bo'lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ko'rsatkichlarini hisobga olishga imkon beradi. Natijalar 2026–2027-yillarda e'lon qilinib, iqtisodiy siyosat va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Demografik jarayonlar ustida ko'plab tadqiqotlar o'tkazgan Evropalik iqtisodchi olimlardan biri ya'ni demografiyaga tamal toshi qo'ygan shaxs J. Graunt bo'lib, u XIX-XX asrlarda demografiya, aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Germaniyada qiyosiy statistika asoschilari

hisoblangan A.L. Shletser (1735-1809) va A. Nimanlarning (1761-1832) asarlari aholi statistikasining rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ularning aholiga doir yondashuvlariga ko'ra, davlatning farovonligi aholi soni va ularning iqtisodiy faoliyatining doimiy tarzda o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Bulardan tashqari, aholi dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondashuvlar siyosiy arifmetikachilar hisoblangan V. Petti (1623-1687), J. Graunt (1620-1674) va E. Galley (1656-1742) kabi olimlar asarlarida ham kuzatiladi. Ularning demografiya fani oldidagi xizmatlari kattadir: ular keyinchalik "aholining tabiiy xarakati" deb nom olgan yangi bilimlar sohasi chegaralarini aniqlab berganlar va miqdoriy (son jihatdan) o'rganish asoslarini yaratganlar. Ular birinchilardan bo'lib "ijtimoiy dalillarni hisoblab chiqish" bo'yicha xarakatlarni amalga oshirganlar.

Yana bir ingliz olimi V. Petti aholi va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sir nazariyasi rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shgan, u XVII asrning eng yirik nazariyotchi- iqtisodchilaridan biri bo'lgan. U mamlakat aholisini davlatning asosiy boyligi, "inson kapitali", deb hisoblagan. "Mehnat - boylukning otasi, yer - uning onasi" mashhur hikmat bevosita U. Pettiga tegishlidir. Shuning uchun olim davlat aholi sonining o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerakligini uqtirgan.

O'zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi o'z tarixiga ega bo'lib, tarixchi va aholishunos olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Respublikada demografiya fanini rivojlantirishda, ayniqsa M.Q. Qo'raxonovning hissasi katta. Demograf olim respublikaning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga M.Q. Qo'raxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tugilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarni ilk bor kompleks o'rgangan hamda demografik prognozni amalga oshirgan, ushbu mavzularda ilmiy asarlar yaratgan.

Demografik jarayonlar ustida ko'plab tadqiqotlar o'tkazgan O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar qatoriga I.R. Mullajonov, R.A. Ubaydullaeva, O.B. Otamirzaev, L.P. Maksakova, D.B. Bobojonova, M.B. Bo'rieva va boshqalar ham katta hissa qo'shganlar.[6, 7]

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosini iqtisodchi olimlarning adabiyotlari hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning aholi ro'yxatga olish bo'yicha ilmiy yondashuvlari, shuningdek, aholini ro'yxatga olishni samarali o'tkazish bo'yicha xalqaro uslubiyotlar, mezonlar tamoyillar tashkil etadi. Mavzuni o'rganish jarayonida statistik kuzatish, umumlashtiruvchi

ko'rsatkichlar, ilmiy abstaksiyalash, statistik rasm va jadvallar usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda aholi har tomonlama izlanuvchi ob'ektdir, chunki u ishlab chiqarish jarayonining bevosita ishtirokchisi va uni natijalarining iste'molchisidir. Aholi jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni, hayot darajasini ifodalaydi.

Aholi statistikasida izlanish ob'ekti ma'lum xududda istiqomat qiluvchi, tug'ilish, vafot etish evaziga beto'xtov yangilanib boruvchi insonlar yig'indisi.

Aholi bu ma'lum hududda yashovchi va uzluksiz tabiiy ko'payish orqali yangilanib boradigan odamlar to'plami. Aholi statistikasining birinchi va muhim vazifalaridan biri bu aholi sonini aniqlash va uning hududlar, yashash joylari bo'yicha joylashishini o'rganishdir.[4] Aholi sonini aniqlashda aholi ro'yxati boshlang'ich manba hisoblanadi. O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish jarayonlari 1897, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda aholi ro'yxati o'tkazilgan. Ushbu davr oralig'ida aholi soni bo'yicha ma'lumotlar 1- rasmda keltirilgan.



1-rasm. O'zbekiston respublikasi hududida aholini ro'yhatga olish tarixi

O'zbekiston 1989 yildan buyon aholini ro'yxatga olmagan. U 2017 yildan beri o'tkazilayotgani aytiladi. O'shanda uni 2022 yilda o'tkazish rejalashtirilgan edi, ammo COVID-19 pandemiyasi tufayli 2023 yilga ko'chirilgandi. O'tgan yilning noyabr oyida aholini elektron ro'yxatga olish o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Aholini ro'yxatga olishning maxsus sayti joriy etildi, "Yangi

O'zbekistonning bir qismi bo'lib tadbirining logotipi va shiori tayyorlandi, biroq, ro'yxatga olish o'tkazilmadi.

2021-yil 1-25-noyabr kunlari respublikaning 4 ta hududida ya'ni, Andijon viloyatining Xo'jabod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida 2-rasm aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi.[5]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrda imzolangan PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, dastlabki 17 kun (15-yanvar – 1-fevral) onlayn ro'yxatga olish, keyingi 27 kun esa "mahalla yettiligi" ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshiriladi. Onlayn bosqichda mobil ilovalar va veb-portallar (census.stat.uz) orqali ro'yxatdan o'tish ta'minlanadi, bu aholining 70–80% qamrovini ta'minlaydi.



2-rasm. O'zbekiston respublikasining 4 ta hududida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish

Xalqaro tavsiyalarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

1. Markazlashtirish. Aholini ro'yxatga olishni boshqarishning qat'iy markazlashtirilishi ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy shartlaridan biridir.

2. Aholini ro'yxatga olishning muntazamligi. BMT tavsiyalariga ko'ra, aholini ro'yxatga olish 10 yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi belgilangan.

3. Aholini ro'yxatga olish maxsus tayyorlangan mutaxassislar – hisobchilar tomonidan o'tkazilishi. Mazkur tadbirni amalga oshirish uchun ko'p miqdorda maxsus xodimlar yollanadi, ularning tarkibiga ziyolilar, talabalar ham kiritilishi mumkin.

4. Aholini ro'yxatga olishni aniq bir muddatda o'tkazish. Bu tadbirni amalga oshirishga odatda 10–12 kun talab etiladi. Aholini ro'yxatga olish bir necha kun davomida o'tkazilsa ham, ma'lumotlar aniq bir vaqtda – ko'pincha aholini ro'yxatga olishning birinchi kunining o soatdagi holati bo'yicha qayd etiladi. Bu aholini ro'yxatga olishning nozik vaqti, deb ham ataladi. Masalan, chaqaloq aholini ro'yxatga olish davrida, ammo ana shu aniq muddatdan keyin tug'ilgan bo'lsa, u aholi ro'yxatiga kiritilmaydi. Lekin, kimdir bu aniq nozik muddatda hayot bo'lib, shundan keyin, ya'ni aholini ro'yxatga olish davrida vafot etsa, u aholi ro'yxatiga kiritiladi.

5. Aholini ro'yxatga olishning belgilab qo'yilgan aniq dasturining mavjudligi va tadbirni unga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazish. Aholini ro'yxatga olish dasturi – ro'yxatga olishda muayyan talablarni hisobga olgan holda, aholiga murojaat qilinadigan savollar ro'yxatini, ma'lumotlarni qayd etish, to'plash, qayta ishlash, yakuniy ma'lumotlarni e'lon qilish tartiblarini o'z ichiga oladi.

6. Aholining to'liq qamrab olinishi. Aholini ro'yxatga olishda kimdir unutilib qoldirilishi yoki ikki marta ro'yxatga olinishi hollari uchrasa ham, mavjud aholining ro'yxatdan joy olinishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

7. Ma'lumotlarning maxfiyligi va shaxsiylashtirilishi. Aholini ro'yxatga olishda individual asosda har bir shaxs to'g'risidagi yakka ma'lumotlar to'planadi. Shu bilan birga, respondentlardan olingan ma'lumotlarning nomsizligi kafolatlanadi. Aholini ro'yxatga olish varaqasidan faqat natijalarni umumlashtirish uchun foydalaniladi.

8. Ixtiyoriylik. Shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar so'ralayotgan (respondent)ning javoblari (kichik yoshdagilar uchun – ota-onalari yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslarning) asosida qayd qilinadi va buni hujjat bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

Aholi statistikasida kuzatish birligi bo'lib, ko'pincha individual tarzda ma'lum bir inson bo'ladi, lekin ba'zi hollarda oila ham bo'lishi mumkin.

Aholi statistikasida kuzatish ob'ekti va birligi izlanish maqsadiga muvofiq holda tanlanadi. Aholi statistikasini asosiy manbalari bo'lib, joriy hisob, to'la yoki tanlanma ro'yxatga olish ma'lumotlari hisoblanadi.

Aholi statistikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat hududidagi va ayrim regionlardagi aholi sonini aniqlash.

2. Aholining tarkibini (jinsi, yoshi, millati, ish o'rni, ma'lumoti, kasbi va xakozo) o'rganish.

3. Aholining tabiiy harakatini (tug'ilish, vafot etish, aholini tabiiy o'sishi, oila qurishi va ajralishi) o'rganish.

4. Aholi migratsiyasini o'rganish.

Shu narsa qiziq bo'lishi mumkinki, demografik jarayonlar yig'indisi passiv, eng qiziqroqsiz, eng qo'pol ko'rinishi mumkin. Shu bilan barcha aksincha, olimlarning archa tortishuv, muammolari, aholini o'sishi, tug'ilish sonini

hisoblash bilan bog'liq. Aholi soni to'g'risida nimani bilish kerak (demografiya predmeti doirasi) soni va tarkibi.

Aholi soni momentli ko'rsatkich, ya'ni aniq bir vaqtga aniqlanadi. Etish mumkin emaski, mazkur yilda aholi sonini. Bu noto'g'ri, chunki yil davomida aholi soni doimo o'zgarib turadi. Statistik to'plamlarda aholi soni asosan 1-yanvarda, 1-iyulga, 31-dekabrga beriladi. Shunga ahamiyat berish kerakki tahlil qilinayotgan aholi soni qanday adminstrativ material chegaralarga taluqli.

Mavjud aholi, doimiy aholi, vaqtincha yashovchilar va vaqtincha yashovchila.

Doimo yashovchilar – aholi yashash punktida doimo yashovchilar va vaqtincha yo'qlarni hisobga olgan xollar

$$DA=MA-VYa+VY$$

Mavjud aholi – aholini ro'xatga olish vaqtida aholini yashash punktida mavjud bo'lganlar

$$MA=DA-VY+VYa$$

Doimiy aholi mezoni sifatida yashovchi 6 oyga teng bo'lgan vaqt olinadi. Masalan oila boshiga aholi ro'yxatga olish vaqtida 6 oydan kam bo'lgan xizmat safarida bo'lsa, doimiy aholi sifatida (vaqtincha yo'q) hisobga olinadi, xizmat safarini o'tash joyda esa vaqtincha yashovchi sifatida hisobga olinadi.

Umuman olganda vaqtincha yashovchilar bilan vaqtincha yo'qlar soni teng bo'lishi kerak.

Aholi soni ikki omil ta'siri ostida o'zgarishi mumkin:

- tabiiy o'sish;
- migratsiya qoldig'i;

va bu ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq, ya'ni

$$A_t = A_o + A_{tug'} - A_{o'l} - A_{kel} - A_{ketgan}$$

bu erda:

A_t – Ma'lum davrdan aholi soni;

A_o – Davr boshiga aholi soni;

$A_{tug'}$ – Davr ichida tug'ilganlar soni;

$A_{o'l}$ – Davr ichida o'lganlar soni;

A_{kel} – Davr ichida kelganlar soni;

A_{ketgan} – Davr ichida kelganlar soni;

Yuqorida ma'lum qilinganidek aholi soni ma'lum davr (moment)ga hisobga olinadi. Lekin ko'pincha ko'rsatkichlarni hisoblash uchun o'rtacha aholi soni talab etiladi.

Agarda aholi soni har yilning boshiga (1/I) yoki yil boshi va yil oxiriga berilgan bo'lsa u holda aholi o'rtacha soni o'rtacha arifmetik oddiy usuli bo'yicha aniqlanadi.

$$A_t = \frac{A_{t-1} + A_{t-2} + 1}{2} \quad A_t = \frac{A_0 + A_1}{2}$$

bu erda: A_0 va A_1 -davr boshi va davr oxiridagi aholi soni.

Xulosa va takliflar.

Xo'sh, respublikamizda aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish bizga nima beradi?

Birinchidan, ma'lum bir sanada aholining aniq soni (yoshi va jinsi tarkibi, fuqaroligi, milliy tarkibi (keng qamrovli), barcha aholi punktlari bo'yicha soni, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, aholi bandligi (kasbi va mutaxassisligi) va ishsizligi, daromad olish manbalari, nogironligi bo'yicha batafsil ma'lumot olinadi.

Ikkinchidan, aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda (yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, sanoat mahsuloti hajmi, iste'mol mahsulotlari hajmi, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ishlatiladi.

Uchinchidan, aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi.

To'rtinchidan, Respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot sifatida foydalaniladi.

Beshinchidan, statistika idoralari tomonidan tashkil etiladigan tanlama kuzatuvlarni tashkil etishda ma'lumotlar bazasi sifatida qo'llaniladi.

Oltinchidan, Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish ko'rsatkichlarini shakllantirish va monitoringini yuritishda xizmat qiladi.

Yettinchidan, aholi punktlarining infratuzulmasini yaxshilashda, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlar, dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

Sakkizinchidan, Xalqaro tashkilotlar va foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tahlillar uchun keng qamrovli axborotlar manbai hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda bunday ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish, bandlik sohasidagi siyosatni belgilash, ijtimoiy siyosat va aholi salomatligi bo'yicha dasturlarni yaratishda, shuningdek davlat hokimiyati organlarining vazifalarini bajarishi, fan va jamiyatni axborot bilan ta'minlash uchun zarurdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonuni. 16.03.2020 yildagi O'RQ-611-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.09.2025 yildagi PF-173-son "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yhatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"
3. 2025 yil 7 oktyar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yhatga olish tadbirlarini o'tkazish chora- tadbirlari to'g'risida"gi № 629-sonli qarori
4. Abdullayev S, Toshmatov Z, Xo'jaqulov X, Muhrumbayeva M.(2009). Iqtisodiy statistikadan praktikum.T. "IQTISOD-MOLIYA", 176 bet.
5. I.A.Matkarimova, Egamov B.N.(2023). "O'zbekiston hududida aholini ro'yhatga olish tarixi va bugun". Ma'mun science" jurnali. ISSN 2181-0000.DOI Journal 10.26739/2181-0000. 1-jild, 2-son. Toshkent-2023, 213-219 bet.
6. Караханов М.К (1983). Некапиталистическая путь развития и проблемы народа населения. – Т.: "Мехнат", 140 с.
7. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р (1998). Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. –Т.: Фан,140 с.
8. <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-tizimidagi-xodimlarning-2-foizigina-statistika-buyicha-oliy-malumatga-ega>
9. <https://stat.uz>
10. <https://lex.uz>
11. https://petro-slavyanka.ru/upload/file/o612_bezbum.pdf

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

